



2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
2026-YILDA O'TKAZILGAN
**AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI
RO'YXATGA OLISHNING
DASTLABKI NATIJALARI**



**AHOLI VA
QISHLOQ XO'JALIGINI
RO'YXATGA OLISH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
2026-YILDA O'TKAZILGAN
AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI
RO'YXATGA OLISHNING DASTLABKI
NATIJALARI**

TOSHKENT – 2026

“O‘zbekiston Respublikasida 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari” statistik to‘plami – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026 – 66 bet.

TAHRIR HAY‘ATI:

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi

B.S. Hamrayev

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

R.D. Maxammadiyev

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

Z.M. Ziyayev

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

L.T. Mirsoatov

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etishva o‘tkazish boshqarmasi boshlig‘i

J.H. Qambarov

Boshqarma xodimlari: *O.A. Sidikov, D.F. Xodjayev, F.F. Normatov, S.Z. Guseynov, O.V. Aleshunina, N.T. Dexkanova, M.B. Yuldasheva, E.V. Egorova*

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhit statistikasi boshqarmasi boshlig‘i

S.S. Hasanov

Boshqarma xodimlari: *SH.A. G‘ulomov, J.B. Saipov, SH.I. Axmedov, D.M. Yangiyev, M.R. Jabborov*

Mazkur statistik to‘plam O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish(keyingi o‘rinlarda – ro‘yxatga olish deb yuritiladi)ning dastlabki natijalari va tahliliy materiallari, respublikadagi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va agrar sohaga oid jarayonlarni joriy holatini aks ettirib, faqat statistik va tahliliy maqsadlar uchun mo‘ljallangan.

Nashrning asosiy maqsadi – ro‘yxatga olishning dastlabki natijalarini foydalanuvchilarga tezkor taqdim etish hamda Aholi va uy-joy fondini ro‘yxatga olishni o‘tkazish bo‘yicha BMTning Yevropa statistiklari konferensiyasi tavsiyalari, BMTning Aholishunoslik jamg‘armasi UNFPA, shuningdek, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAOning Umumjahon qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish dasturiga muvofiq mamlakatning asosiy demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va agrar sohaga oid ko‘rsatkichlarini yoritishdan iborat.

Nashr davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xalqaro tashkilotlar, ilmiy muassasalar hamda mamlakat aholisi va agrar sohaga oid dolzarb statistik ma‘lumotlarga qiziquvchi keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan.

Ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining veb-portalida uchta tilda – o‘zbek, rus va ingliz tillarida – quyidagi manzilda e‘lon qilingan: [https:// www.aholi.stat.uz](https://www.aholi.stat.uz)

Mazkur nashr dastlabki ma‘lumotlar hisoblanib, ma‘lumotlar statistik qayta ishlashning barcha bosqichlari to‘liq yakunlangandan so‘ng 2027-yil 1-iyulga qadar belgilangan milliy va xalqaro statistik standartlarga muvofiq qayta aniqlashtiriladi.

Mundarija

QISQARTMALAR RO'YXATI.....	v
KIRISH SO'ZI	vi
MINNATDORCHILIK	xi
AHOLI VA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHNING DASTLABKI NATIJALARI BO'YICHA JADVALLAR	1
JADVALLARGA IZOHLAR	2
AHOLIGA OID JADVALLAR	3
AHOLI SONI VA TARKIBI	4
Hududlar kesimida aholining jinsi bo'yicha taqsimlanishi	4
Hududlar kesimida aholining shahar va qishloq joylarda joylashuvi.....	5
Hududlar kesimida aholining shahar va qishloq joylarda joylashuvi va jinsi bo'yicha taqsimlanish.....	6
Aholi sonining yashash maqomi bo'yicha taqsimlanishi	7
Ro'yxatga olish sanasida aholining jinsi bo'yicha doimiy yashash joyida qayd etilishi	8
Hududlar kesimida aholining doimiy yashash joyida vaqtincha bo'lmaganlik sabablari va jinsi bo'yicha taqsimlanishi.....	12
Ro'yxatga olish sanasida aholining shahar va qishloqlar bo'yicha doimiy yashash joyida qayd etilishi	20
AHOLINING YOSH TARKIBI.....	24
Hududlar kesimida aholining yosh guruhlari va jinsi bo'yicha taqsimlanishi.....	24
Aholi sonining asosiy yosh guruxlari bo'yicha taqsimlanishi.....	39
TUG'ILGAN JOYI	40
Hududlar kesimida aholining tug'ilgan joyi bo'yicha taqsimlanishi	40
Hududlar kesimida aholining tug'ilgan joyi bo'yicha taqsimlanishi	41
Hududlar kesimida mavjud aholining tug'ilgan davlati bo'yicha taqsimlanishi.....	42
AHOLINING MILLIY TARKIBI	43
Hududlar kesimida aholining milliy tarkibi	43
Hududlar kesimida aholining milliy tarkibi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi	44
AHOLINING TIL XUSUSIYATLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHI	51
Hududlar kesimida aholining asosiy muloqot tili (ona tili) bo'yicha taqsimlanishi.....	51

UY-JOY SHAROITLARI.....	52
Hududlar kesimida aholining turar joy turlari bo'yicha taqsimlanishi.....	52
QISHLOQ XO'JALIGIGA OID JADVALLAR	53
2025-yil O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxs tashkil etgan xo'jalik rahbarlarining jinsi va yosh guruhlari bo'yicha soni.....	54
2025-yil O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi faoliyati bilan band bo'lgan yuridik shaxslarning asosiy xodimlari soni.....	56
2025-yil O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi faoliyati bilan band bo'lgan yuridik shaxslarning mavsumiy ishchilari soni	56
2025-yil O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi yer maydonlarini sug'orish uchun foydalanilgan suv manbalari bo'yicha yuridik shaxslarning xo'jalik toifalari kesimida soni.....	57
2025-yil O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi yer maydonlarini sug'orish uchun foydalanilgan sug'orish usullari bo'yicha yuridik shaxslarning xo'jalik toifalari kesimida soni	58
2025-yil O'zbekiston Respublikasida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi yerlari va baliq boqish havzalarining maydonlari.....	59
2025-yil O'zbekiston Respublikasida ko'chat yetishtirish bilan shug'ullangan xo'jaliklarning toifalari kesimida soni.....	60
2026-yil 15-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarini saqlash usullari bo'yicha yuridik shaxslarning xo'jalik toifalari kesimida soni.....	62
2026-yil 15-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxslarda mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalar bosh soni.....	64
2026-yil 15-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi bo'yicha dehqon va tomorqa xo'jaliklarida mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalar bosh soni	65
2025-yil O'zbekiston Respublikasida suv havzalari bo'yicha baliq boqish (akvakultura) bilan shug'ullangan yuridik shaxslarning xo'jalik toifalari kesimida soni.....	66

QISQARTMALAR RO'YXATI

CAWI	Kompyuter yordamida veb-intervyu (Computer-Assisted Web Interviewing)
CAPI	Kompyuter yordamida shaxsiy intervyu (Computer-Assisted Personal Interviewing)
GIS	Geografik Axborot Tizimi
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti
UNFPA	BMTning Aholishunoslik jamg'armasi
CES	Yevropa statistiklari konferensiyasi
IOM	Xalqaro migratsiya tashkiloti
FAO	BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti
OneID	Raqamli hukumat foydalanuvchilarining yagona identifikatsiya tizimi
AT	Axborot tizimi
mln	million
ming	ming
ga	gektar

Nashrda qabul qilingan shartli belgilar:

- hodisa mavjud emas
- 0,0 ko'rsatkich qiymati 0,05 dan kam
- respondentlardan olingan birlamchi statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining
- ... "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq, ma'lumotlar e'lon qilinmaydi

Ayrim hollarda jami ko'rsatkich bilan ko'rsatkichlar yig'indisi o'rtasidagi tafovutlar ma'lumotlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

KIRISH SO‘ZI

Behzod Hamrayev

O‘zbekiston Respublikasi

Milliy statistika qo‘mitasi raisi

E’tiboringizga O‘zbekiston Respublikasida 2026-yil o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari taqdim etilmoqda. Ro‘yxatga olish har qanday davlatning statistika tizimida alohida o‘rin tutadigan, mamlakatning joriy holati va kelajak taraqqiyoti uchun ishonchli axborot poydevorini yaratuvchi muhim strategik tadbir hisoblanadi.

Ushbu ro‘yxatga olish aholiga oid va agrar sohaning joriy holatini aks ettirib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, hududlarni rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan statistik ma’lumotlar manbaini shakllantiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida aniq va xolis ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgani bois, 2026-yilda O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbiri mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirish va strategik qarorlar qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega davlat statistika tadbiri hisoblanadi.

Mazkur ro‘yxatga olish mamlakatimiz tarixidagi muhim statistik kuzatuv bo‘lib, aholi va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha yagona metodologiya asosida olingan ma’lumotlar demografik holat, bandlik, migratsiya, uy xo‘jaliklari, agrar salohiyat, yer resurslari, fermer xo‘jaliklari faoliyati va ishlab chiqarishni baholash, resurslardan samarali foydalanish hamda davlat dasturlari va sohaviy strategiyalarni ishlab chiqish uchun ishonchli asos yaratdi.

Ro‘yxatga olish jarayoni mamlakatning barcha hududlarini qamrab olgan holda, xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyotlarga muvofiq tashkil etildi. Ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va amalga oshirish bosqichlarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, zamonaviy statistik metodologiyalar va ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha eng yaxshi tajribalardan keng foydalanildi. Bu esa olingan ma’lumotlarning sifati, xolisligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini ta’minlashga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy statistika tizimini takomillashtirish, uni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish va zamonaviy boshqaruv talablariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Rasmiy statistika sohasida ochiqlik, shaffoflik va foydalanuvchilar ehtiyojlariga yo‘naltirilganlik tamoyillarini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish mazkur islohotlarning amaliy natijasi sifatida milliy statistika tizimining institutsional va texnologik imkoniyatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Ro'yxatga olish jarayonida raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlardan samarali foydalanildi. Ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish jarayonlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi ma'lumotlarning aniqligi va tezkorligini ta'minlash, inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytirish hamda statistik ishlarning samaradorligini oshirish imkonini berdi. Bu esa mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayonlarining statistika sohasidagi amaliy ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur statistik to'plamda taqdim etilayotgan dastlabki natijalar aholi va qishloq xo'jaligi sohasining asosiy xususiyatlari haqida dastlabki tasavvurni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xususiy sektor va keng jamoatchilik uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, ma'lumotlarni aniqlashtirish, tekshirish, tahlil qilish va umumlashtirish ishlari davom ettiriladi hamda belgilangan tartibda ro'yxatga olishning batafsilva yakuniy natijalari keyingi bosqichlarda keng jamoatchilik e'tiboriga havola etiladi.

Fursatdan foydalanib, ushbu keng ko'lamli tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan barcha ishtirokchilarga samimiy minnatdorchilik bildiraman. Avvalo, ro'yxatga olish jarayonida faol ishtirok etgan mamlakatimiz aholisiga, fermer va dehqon xo'jaliklari vakillariga, taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchililigini ta'minlashga qo'shgan hissalarini uchun alohida tashakkur izhor etaman.

Shuningdek, ro'yxatga olish tadbirini yuqori saviyada tashkil etilishi va muvaffaqiyatli o'tkazilishida munosib hissa qo'shgan "mahalla yettiligi" vakillari, statistika organlari xodimlari, volontyorlar, xususiy sektor vakillari, tijorat banklari, vazirlik va idoralar, davlat boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ekspertlar hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar va boshqa hamkorlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman. Ularning faol ishtiroki, amaliy ko'magi va samarali hamkorligi ushbu muhim umummilliy tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minladi.

Ishonamanki, ro'yxatga olish natijalari mamlakatimizda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish, ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, qishloq xo'jaligi salohiyatidan oqilona foydalanish va davlat boshqaruvi sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, mazkur natijalar inson kapitalini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga munosib hissa qo'shadi.



Doktor Nigina Abaszade

BMT Aholishunoslik jamg'armasi UNFPAning
O'zbekistondagi doimiy vakili

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA) nomidan O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Milliy statistika qo'mitasini mamlakat tarixidagi ilk Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining muvaffaqiyatli yakunlangani bilan samimiy tabriklayman. Ushbu tarixiy yutuq O'zbekiston taraqqiyoti yo'lidagi muhim bosqich bo'lib, dalillar, bilim va kelajakka qaratilgan milliy investitsiyadir.

O'ttiz yildan ortiq vaqt davomida O'zbekistonda rivojlanishni rejalashtirish jarayonlari yangilangan aholi ro'yxatga olish ma'lumotlarisiz amalga oshirib kelindi. Demografik, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar jadal kechayotgan bugungi sharoitda mazkur ro'yxatga olish mamlakat aholisi, uy xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi sohasidagi holatni anglash uchun muhim yangi asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

2026-yilgi ro'yxatga olish ma'lumot to'plashning zamonaviy yondashuvini joriy qildi: unda odamlarning internet orqali mustaqil ro'yxatdan o'tishi imkoniyati hamda maxsus tayyorlangan ro'yxatga oluvchilar tomonidan raqamli qurilmalardan foydalangan holda xonadonma-xonadon yurish usuli uyg'unlashtirildi. Ushbu model ma'lumotlarni yanada samarali to'plash, ularning aniqligini oshirish hamda natijalarni rejalashtirish va qarorlar qabul qilish jarayonlarida qo'llash uchun qisqa muddatlarda taqdim etish imkonini berdi.

Ro'yxatga olish jarayoni O'zbekistonning eng katta milliy ustunliklaridan biri – mahalla tizimiga ham tayandi. Mahallalarning butun mamlakat bo'ylab keng tarmog'i orqali aholini qamrab olish, jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va mamlakatning barcha hududlaridagi, jumladan, olis va xizmatlar bilan yetarli darajada qamrab olinmagan aholi punktlaridagi xonadonlarga yetib borish imkoni yaratildi. Mahalla vakillarining faol ishtiroki ro'yxatga olish jarayonining mahalliy ehtiyoj va sharoitlarga mos ravishda tashkil etilishiga xizmat qildi va har bir inson ro'yxatga olinishi uchun imkoniyat yaratilishini ta'minladi.

Raqamli innovatsiyalar, xonadonma-xonadon ro'yxatga olish va mahalla tizimining faol ishtirokini uyg'unlashtirgan holda, O'zbekiston mustaqillikdan keyingi ilk ro'yxatga olish tadbirini xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlarga muvofiq amalga oshirdi. Ushbu yutuq milliy statistika tizimini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi hamda kelgusi yillarda aholi to'g'risida muntazam, ishonchli va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ma'lumotlar uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ro'yxatga olish natijalari siyosat ishlab chiquvchilarga o'zgarib borayotgan ehtiyojlarni aniqlash, demografik tendensiyalarni oldindan baholash va davlat investitsiyalarini eng zarur yo'nalishlarga yo'naltirish orqali O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash va ta'limdan tortib bandlik, uy-joy, ijtimoiy himoya, infratuzilma, shaharsozlik va iqtisodiy o'sishgacha bo'lgan sohalarda ishonchli ma'lumotlar yanada maqsadli siyosatlarni ishlab chiqish va resurslarni hududlar hamda jamoalar o'rtasida adolatli taqsimlash imkonini beradi.

Ushbu nashr ro'yxatga olish natijalarini keng jamoatchilikka taqdim etish yo'lidagi birinchi qadamdir. Natijalarni siyosat ishlab chiquvchilar, tadqiqotchilar, rivojlanish bo'yicha hamkorlar va keng jamoatchilik uchun ochiq qilish orqali mazkur nashr shaffoflikni ta'minlash, xabardor muloqotni rag'batlantirish hamda dalillardan milliy va mahalliy rejalashtirish jarayonlarida amaliy foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi.


UNFPA aholini ro'yxatga olish jarayonining barcha bosqichlarida O'zbekiston Hukumati va Milliy statistika qo'mitasi bilan hamkorlik qilganidan faxrlanadi. Jamg'armaning hissasi yuqori darajadagi targ'ibot va siyosiy ko'makdan tortib, aholini ro'yxatga olish metodologiyasi, raqamli texnologiyalar asosida ma'lumot yig'ish, sifatni ta'minlash, salohiyatni oshirish hamda xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarga muvofiqlashtirish bo'yicha texnik tavsiyalar berishgacha bo'lgan keng ko'lamli ishlarni o'z ichiga oldi.

YUNFPA milliy va mahalliy darajadagi ro'yxatga olish salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy ma'lumot to'plash vositalarini joriy etish va rivojlanish bo'yicha hamkorlar o'rtasidagi muvofiqlashuvni kengaytirishga hissa qo'shganidan mamnun. Kelgusida ham YUNFPA ro'yxatga olish natijalarini tahlil qilish, tarqatish va ulardan amaliy foydalanishni, jumladan demografik prognozlar, Barqaror rivojlanish maqsadlari monitoringi, tarmoqlar kesimida rejalashtirish va dalillarga asoslangan siyosatni shakllantirish uchun qo'llab-quvvatlashda davom etadi.

Ushbu tarixiy ro'yxatga olish tadbirining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi Hukumatining milliy statistika tizimini yanada mustahkamlash, kelgusi investitsiyalar, rejalashtirish va islohotlarni ishonchli statistik ma'lumotlar va dalillarga asoslangan holda amalga oshirishga bo'lgan qat'iy intilishining yaqqol dalilidir. Shuningdek, bu yutuq minglab statistiklar, ro'yxatga oluvchilar, ekspertlar, mahalla vakillari va hamkorlarning fidoyiligi hamda yuqori kasbiy mahoratini aks ettiradi.

Ishonamizki, ushbu nashrda keltirilgan natijalar nafaqat bugungi O'zbekistonning o'ziga xos qiyofasini aks ettiradi, balki mamlakat kelajagini shakllantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu shunday kelajakki, unda har bir inson hisobga olinadi, har bir jamoa ko'rinadi va har bir siyosat hamda investitsiya esa dalillarga asoslanadi.

Yana bir bor O'zbekistonni ushbu tarixiy yutuq bilan tabriklayman va YUNFPAning mamlakatda davom etayotgan islohotlar, barqaror rivojlanish va barcha uchun farovonlikni oshirish maqsadida demografik ma'lumotlar salohiyatidan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlashga bo'lgan qat'iy sodiqligini tasdiqlayman.



Sherzod Umarov

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ning
O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o'rinbosari

O'zbekistonda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining o'tkazilishi mamlakat milliy statistika tizimini rivojlantirish yo'lidagi muhim bosqichdir. Ushbu keng ko'lamli tadbir aholi, uy xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida ishonchli, yaxlit va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan ma'lumotlarni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratdi.

Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish natijalari yerga egalik qilish va undan foydalanish, ekin maydonlari, sug'orish, chorva mollari va parrandalar soni, qishloq xo'jaligida bandlik hamda ishlab chiqarish resurslari to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda baholash imkonini beradi. Bunday ma'lumotlar oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, agrar va hududiy siyosatni takomillashtirish, investitsiyalarni samarali yo'naltirish hamda barqaror qishloq xo'jaligi-oziq-ovqat tizimlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) o'zining Qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha Jahon dasturi orqali mamlakatlarga milliy ro'yxatga olish tadbirlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etishda uslubiy yo'riq va texnik yordam ko'rsatib keladi. O'zbekistonning vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda FAO qishloq xo'jaligi sohasini aholini ro'yxatga olish jarayoniga uyg'unlashtirish, uslubiy izchillikni ta'minlash hamda olinadigan ma'lumotlarning sifati, ishonchliligi va xalqaro taqqoslanuvchanligini oshirishga ko'maklashdi.

Mazkur nashr amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalarni umumlashtirish bilan birga, ro'yxatga olish ma'lumotlaridan dalillarga asoslangan siyosat, strategik rejalashtirish va ilmiy tadqiqotlarda samarali foydalanishga xizmat qiladi. Ishonchim komilki, unda jamlangan ma'lumotlar davlat siyosatini shakllantirish, strategik rejalashtirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim axborot-tahliliy manba bo'lib xizmat qiladi.

FAO nomidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, tegishli davlat organlari, ekspertlar va barcha hamkorlarni ushbu muhim umummilliy tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilgani hamda mazkur nashrning chop etilishi bilan samimiy tabriklayman. Ushbu keng ko'lamli jarayonga munosib hissa qo'shgan barcha mutaxassislar va ishtirokchilarga chuqur minnatdorlik bildiraman.

MINNATDORCHILIK

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri mamlakatimiz milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib, uning samarali tashkil etilishi va dastlabki natijalarining e'lon qilinishi barcha ishtirokchilarning hamjihatligi, professional yondashuvi va fidokorona mehnatlari natijasidir.

Ro'yxatga olish tadbirining barcha bosqichlarida ishtirok etgan mutaxassislarning bilim va tajribasi, kasbiy mahorati, tashabbuskorligi hamda mas'uliyatli yondashuvi mazkur keng ko'lamli statistik tadbirning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi nomidan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish va o'tkazishda munosib hissa qo'shgan barcha tashkilotlar, jamoalar va mutaxassislarga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Alohida ta'kidlash joizki, mazkur tarixiy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini yuqori saviyada tashkil etish, uning barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish hamda xalqaro standartlar asosida samarali amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi raisi o'rinbosarlari **Rustem Maxammadiev, Zohidjan Ziyaev** va **Lazizjon Mirsoatov**larning yuksak mas'uliyati, strategik rahbarligi, amaliy ko'magi va fidokorona mehnati alohida o'rin tutdi. Ularning tashabbuskorligi, kasbiy mahorati va jarayonga qo'shgan munosib hissasi ro'yxatga olish ishlarining muvaffaqiyatli o'tkazilishi hamda dastlabki natijalarning ishonchli shakllantirilishiga muhim zamin yaratdi.

Jahongir Qambarov boshchiligidagi Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasi xodimlari – **Olimjon Sidikov, Farrux Normatov, Dilmurod Xodjayev, Sardar Guseynov, Nigoraxon Dexkanova, Madina Yuldasheva, Yelena Yegorova, Olga Aleshunina, Zulayxo Xudayarova, Feruz Farmonov, Asadbek Xoldarov, Bekzod Amirov, Dilmurod Dilshodov, Fariddun Muhitdinov, Jur'atjon To'raqulov, Boboyorbek Boliyev, Ayjan Eraliyeva va Muhabbat Kamolova** tomonidan ro'yxatga olish tadbirini muvofiqlashtirish, tayyorgarlik ishlarini tashkil etish, tashkiliy va uslubiy jihatdan ta'minlash hamda amalga oshirilgan ishlar sifatini nazorat qilish, shuningdek, dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va chop etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ularning mazkur yo'nalishdagi xizmatlarini yuksak baholaymiz.

Shu o'rinda, Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish boshqarmasining hududlardagi bo'limlari boshliqlari hamda xodimlarining ham mazkur tadbirni samarali tashkil etishdagi hissasini alohida qayd etish lozim. Ular tomonidan yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, hududlardagi

jarayonlarni muvofiqlashtirish, shuningdek, tashabbuskorlik bilan faoliyat yuritish borasida qo'shgan munosib hissalar alohida e'tirofga loyiqdir.

Shohruh Odilov boshchiligidagi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish boshqarmasi xodimlari – **Shahboz Samadov, Murodjon Umarov, Shohro'zbek Ochilov, G'anisher Eshmurodov, Nodirbek Nosirov, Suxrobbek Olimov, Nodirbek Iskandarov, Jaloliddin Mamatmusayev, Omadbek Qosimov, Ibrohim Abdug'aniyev, Nurmuxammad Mashrapov, Bahromiddin Ibragimov, Humoyiddin O'razaliyev, Sohibjon Abdialimov, Shuxrat Tursunov, Og'abek Otaxonov, Jamila Negmatova, Marufjon Nurullayev, Mansur Askarov, Abdullajon Davlatov, Shoxrux Ortiqov, Tumaris Ramanova, Oybek Yo'ldoshev, Og'abek Mirzayev, Baxodir Raxmonov, Baxrom Ermatov, Dilshod Nurullayev, Shaxriyor Tursunaliyev, Shamsiddin Abdusattorov va Shohruh Chorshanbiyev** tomonidan ro'yxatga olish jarayonlarining raqamli infratuzilmasini yaratish, axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, dasturiy-texnik yechimlarni takomillashtirish hamda ularning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar alohida ahamiyat kasb etdi. Ularning kasbiy salohiyati va mas'uliyatli yondashuvi natijasida ro'yxatga olish jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, ro'yxatga olish jarayonlariga oid ma'lumotlarni geografik axborot tizimi (GAT) asosida hududlar kesimida elektron xaritalarda aks ettirish, ro'yxatga olish obyektlarining joylashuvini vizuallashtirish, jarayonlarni tezkor monitoring qilish hamda hududiy qamrov va natijalarni tahlil qilish imkonini beruvchi raqamli yechimlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda boshqarma xodimlarining hissasi beqiyos bo'ldi.

Shu bilan birga, ro'yxatga olish axborot tizimlari va raqamli infratuzilmasini yaratish, texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, serverlar va dasturiy platformalarning uzluksiz hamda barqaror ishlashini ta'minlashda samarali hamkorlik qilgan **“PROXIMA” MCHJ jamoasi**ga ham alohida minnatdorchilik bildiramiz.

Mazkur yo'nalishda faoliyat olib borgan barcha mutaxassislarning mas'uliyatli, tashabbuskor va fidokorona mehnati ro'yxatga olish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yuqori saviyada tashkil etish, ma'lumotlarning ishonchliligi va tezkor qayta ishlanishini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi vakillari **Olimjon Umarov, Dilshod Mirzayev, Anvar Jumaniyazov, Alisher Babaxanov, Abrorbek Rajabov** hamda **“Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” DM** vakillari **Anvar Mansurov va Djasur Shoraxmedov**ga yuksak kasbiy salohiyati, mas'uliyati, fidokorona mehnati hamda tezkorligi, shuningdek yuqori yuklama sharoitida server infratuzilmasining barqaror faoliyat yuritishi va asosiy raqamli komponentlarning uzluksiz ishlashini ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi

uchun chuqur minnatdorchilik bildiramiz. Ularning sa'y-harakatlari ro'yxatga olish jarayonida axborot tizimining ishonchli faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Bekzod Imamov boshchiligidagi Kiberxavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari – **O'ktamjon Nazirov, Umidjon Esanov, Doston Nurmatov** va **Bekzod Ibragimov** tomonidan ro'yxatga olish jarayonlarida axborot xavfsizligini ta'minlash, ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsiz raqamli muhitni shakllantirish yo'nalishida amalga oshirilgan mas'uliyatli mehnati uchun chuqur minnatdorchilik bildiramiz;

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri doirasida axborot xavfsizligi, raqamli infratuzilma va axborot tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlashda muhim hissa qo'shgan Raqamli texnologiyalar sohasidagi tashkilotlar va mutaxassislarning faoliyatini alohida e'tirof etamiz.

Jumladan, Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi boshlig'i **Djasur Shoraxmedov** rahbarligidagi jamoa a'zolari – **Xojiakbarxon Mahmudov, Zafar Xolmanov, Olimjon Rahmonov, Muzaffar Rasulov, Asrorbek Hamidov, Kamoljon Ne'matov** va **Asilxo'ja Abdusodiqov**;

"Kiberxavfsizlik markazi" davlat muassasasi rahbari **Olimjon Mirzayev** boshchiligidagi mutaxassislari – **Sanjar Karimov, Maksim Morozov, Jahongir Mahmudov, Ruhilla Xidoyev, Avazxon Saydorifxo'jayev, Oybek Zokirjonov, Shuhratbek Tojimuratov** va **Shahbozbek Tojaliyev**;

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi vakillari – **Xojiakbar To'lqunov, Ildar Masharipov, Farhod Mirzayev** va **Hamidjon Davlatov**;

UNICON.UZ vakillari – **Nodirxo'ja Yadgarov, Akbar Ortiqboyev, Ilhomjon Islomov, Bobur Ortiqov** va **Diyorbek Toshpulatov** tomonidan ro'yxatga olish axborot tizimida shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash, zamonaviy himoya mexanizmlarini joriy etish, server infratuzilmasi hamda axborot resurslarini muhofaza qilish, himoyalangan aloqa kanallarini tashkil etish va tizimlarning uzluksiz ishlashini ta'minlash borasida amalga oshirilgan samarali ishlarini yuksak baholaymiz.

UNICON-SOFT jamoasi tomonidan ro'yxatga olish tadbiri jarayonida planshet qurilmalarida yuzaga kelgan texnik va dasturiy masalalarni tezkor hal etish, axborot tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlash hamda hududlarga o'z vaqtida amaliy texnik ko'mak ko'rsatish borasidagi samarali faoliyatini alohida e'tirof etamiz.

Ushbu mutaxassislarning yuqori kasbiy mahorati, mas'uliyatli yondashuvi va uzluksiz mehnati natijasida ro'yxatga olish jarayonida shakllangan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va daxlsizligi axborot xavfsizligi talablari asosida himoya qilinishi ta'minlandi. Mazkur yo'nalishda qo'shgan munosib hissalarini uchun o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Sobir Xasanov rahbarligidagi Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi boshqarmasi xodimlari hamda ma'lumotlarni qayta ishlash guruhi a'zolari – **Shovkat G'ulomov, Javlan Saipov, Sherali Axmedov, Dilmurodjon Yangiyev, Mavlonberdi Jabborov, Sultonmurod Bektemirov, Abbosbek Boltayev, Shaxzodbek Karimov, Keldiyor Qurbonov, Ravshanbek Muhammadjonov, Xasan Pirnazarov, Azim A'zamov, Doniyor Xolmatov, Saidakramxon Xasanxonov, Kamoliddin Abdugafarov** va **Umid Tashmuxeimedov** tomonidan qishloq xo'jaligi statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish, yuridik shaxslardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish ishlari yuqori saviyada tashkil etildi. Ularning samarali mehnati uchun tashakkur izhor etamiz.

Milliy statistika tizimini transformatsiya qilish ofisi boshlig'i **Ulug'bek Noipov** hamda ofis boshlig'i o'rinbosari **Jasurbek Abdullayev** tomonidan ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayonlarida xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish, xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va ta'minlash borasida ko'rsatgan munosib xizmatlarini alohida e'tirof etamiz.

Ro'yxatga olish jarayonlarining uslubiy jihatdan xalqaro statistik tavsiyalarga muvofiqligini ta'minlash borasidagi munosib hissasi uchun Metodologiya boshqarmasi boshlig'i **Dilshod Zakirovga** va mazkur boshqarmaning tajribali mutaxassisi **Mavluda Nishonovaga** samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Usmon Abdurasulov boshchiligidagi Axborot, kommunikatsiyalar va media markazi mutaxassislari hamda targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish bo'yicha ishchi guruh a'zolari – **Kamola Ismoilova, Halimjon Xolboyev, Vaxob To'xtaev, Umidjon Sayfullayev, Hanifa Sadullayeva** va **Shaxzod Alijonov**, shuningdek, hududiy statistika boshqarmalari Axborot xizmati mutaxassislarning ro'yxatga olish tadbirlari jarayonida ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni ta'minlash, aholi o'rtasida keng qamrovli tushuntirish va axborot-ma'rifiy ishlarini tashkil etish borasidagi munosib xizmatlarini yuksak qadrlaymiz.

Shu bilan birga, ro'yxatga olish jarayonlariga oid targ'ibot va axborot materiallarini keng jamoatchilikka tezkor va sifatli yetkazishda faol ishtirok etgan ommaviy axborot vositalari vakillariga ham samimiy minnatdorlik bildiramiz. Xususan, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi o'rinbosari **Madamin Safarov**, O'zbekiston Milliy axborot agentligi Bosh direktorining birinchi o'rinbosari **Xushnud Xudoyberdiyev**, Madaniyat vazirligi matbuot xizmati xodimlari **Orifjon Fayziyev** va **Sarvinoz Qurbonova**, shuningdek, Sport vazirligi matbuot xizmati rahbari **Nurbek Salomov**ning amaliy ko'magi va faol ishtiroki alohida e'tirofga loyiq.

Ro'yxatga olish jarayonlariga oid tayyorlangan barcha materiallar va huquqiy hujjatlarni tahrir qilish, shuningdek, ro'yxatga olish tarixiga doir

qiziqarli faktlarni arxivlardan izlab topish va ular asosida qisqa axborotlar tayyorlab, keng jamoatchilikka yetkazishda faollik ko'rsatgan **Qiyomxon Ahmedov**ga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Zoyir Yuldoshev rahbarligidagi ro'yxatga olish tadbiri jarayonlariga jalb etiladigan shaxslarni tayyorlash bo'yicha ishchi guruhi tomonidan hududiy statistika boshqarmalarining mas'ul murabbiylari hamda vaqtincha jalb etiladigan "mahalla yettiligi" xodimlarini qo'mita tomonidan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlash jarayonlarini samarali tashkil etish, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazish borasida amalga oshirgan ishlarini alohida e'tirof etamiz.

Komissiya va ishchi guruh a'zolari, vazirlik va idoralar vakillarini o'qitish jarayonlarini samarali tashkil etishdagi munosib hissasi uchun Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti direktori **Shuxrat Shukurovga**, institut direktorining o'rinbosari **Abdulaziz Abduvaliyevga** hamda institutning malakali o'qituvchisi **Maxsuda Axmedovaga** samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Shuningdek, **Akrom Sultanov, Umarjon Obidov, Abdugafir Mirzaxidov, Javoxirbek Djamaldinov, Shaxnoza Ismailova, Yelena Xan, Ra'no Razakova, Gulnora Narbayeva, Xurshid Kushnazarov, Sherali Jurayev, Oybek Ochilov, Gulbaxor Salixova, Qobiljon Usanov, Baxodir Jabborov, Zuxra Mamadjanova, Dilbar Baxromova, Davron Tojiboyev, Zayniddin Egamshukurov, Sanjar Raximov, Shermuhammad Abdusalomov, Xamidaxon Akbarova, Axadjon Sattorov, Alisher Raximov, Azamat Jurayev, Muslima Muxamedova, Sardor Meliboyev, Bahodir G'ofurov, Maxmuda Yunusova, Javohir Usmonov, Ikromjon Odiljonov, Zarinaxon Sattorova, Bunyodbek Bakirov, Oybek Izmailov, Rustam Ruzayev, Baxtiyor Mamadaliyev, Ayubxon Nurillayev, Dilshodjon Ibrohimovlar** tomonidan vazirlik hamda idoralar xodimlarini internet orqali ro'yxatga olish bosqichiga tayyorlash maqsadida savolnomalarni to'ldirish tartibi bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va o'tkazish borasida amalga oshirilgan ishlarni munosib baholaymiz.

Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari **Jamshid Shirinov**, Buxgalteriya hisobi bo'limi boshlig'i **Yo'lchi Husanov** va Ichki audit xizmati boshlig'i **Oybek Bobojonov** tomonidan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri doirasida moliyaviy va iqtisodiy jarayonlarni samarali tashkil etish, ajratilgan mablag'larni rejalashtirish, ulardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, ro'yxatga olish tadbirini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar smetasini shakllantirish, moliyalashtirish manbalarini muvofiqlashtirish, tadbir uchun zarur moddiy-texnika resurslarini xarid qilish va ularni o'z vaqtida yetkazib berish ishlari yuqori saviyada tashkil etildi.

Ma'murjon Satimov boshchiligida Call-markazi mutaxassislari – **Xurshid Usmanov, Nursulu Kaypova, Manzuraxon Tursunova, Sitora Rixsiboyeva, Maxmudjon Mirzajonov, Ne'mat Sulaymanov, Temur Xusinboyev, Doniyorbek Jumaqo'ziyev** va **Azizxo'ja Alixo'jayev** tomonidan ro'yxatga olish tadbiri jarayonida aholi va tadbir ishtirokchilarining murojaatlariga uzluksiz ravishda tezkor maslahat va tushuntirishlar berish, shuningdek, ularni zarur axborotlar bilan ta'minlash borasida amalga oshirgan ishlari uchun tashakkur izhor etamiz;

Suxrob Shadimatov boshchiligidagi Statistika materiallarni tarqatishni texnik qo'llab-quvvatlash bo'limi mutaxassislari – **Ruzaliya Butaxina, Olesya Sisoyeva**, shuningdek, **Muzaffar Axmedov, Mohira Kasimova, Natalya Shemleva, Anna Karmanayeva** va **Anna Trofimovalar** tomonidan ro'yxatga olish tadbiri uchun zarur bo'lgan uslubiy va targ'ibot materiallarini o'z vaqtida chop etish va hududlarga yetkazib berish ishlarini samarali tashkil etganliklarini alohida e'tirof etamiz.

Ijro kotibiyati mudiri **Fayzulla Berdibayev** rahbarligida, mazkur kotibiyat bo'lim boshlig'i **Dilmurod Xamdamov** hamda markaziy apparatdan hududlarga amaliy ko'mak ko'rsatish uchun biriktirilgan xodimlar – **Xurshid Iskandarov, Ma'rufjon Toshpulotov, Muhridin Abdullayev, Bunyodbek Nishonboyev, Farhod To'rayev, Komiljon Gulboyev, Abror Nurov, Sardor Begmatov, Jahongir Mexmonov, Muzaffar Jomolov, Xondamir Axmedov, Rahmatjon Urazbayev, Ulug'bek Karimov, Odamboy Qalandarov, Ikromjon Raximov** va **Oybek Rustamov**, tomonidan hududiy davlat organlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish, ro'yxatga olish tadbirlarini joylarda samarali tashkil etish va o'tkazish, tashkiliy masalalarni tezkor hal etish hamda yuklatilgan vazifalarning sifatli ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar munosib e'tirofga loyiq bo'lib, ularning xizmat faoliyatini yuksak baholaymiz.

Shuningdek, hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari – **Temirbay Ganiyev, Nodirbek To'xtaboyev, Ulug'bek Jumanazarov, Dilshod Mulladjanov, Qilichbek Nurmatov, Shuhrat Tayloqov, Nodirbek Xamrayev, Asqar Tashnazarov, Sanjarbek Melixo'jayev, Sharof Abdiyev, Sherzod Qudratov, Bobur Choriyev, Ulug'bek Elmuratov, Shuhrat Jamoldinov, Shohrux Mamadaliyev, Asfandiyor O'tamuratov** va **Xasan Narziyev** rahbarligidagi jamoalarning ro'yxatga olish tadbirlarini joylarda yuqori saviyada tashkil etish, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish hamda mazkur jarayonning muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashga qo'shgan munosib hissasini alohida e'tirof etamiz.

Jahon banki ekspertlari **Ambar Narayan, Obert Pimxidzay, Ikuko Uochi, Olivye Dyupriye, Malarviji Virappan, Juderika Dias, Sergey Radyakin, Darya Miroshnikova, Shaxnoza Raxmankulova** hamda mustaqil ekspertlar **Xakan Demirbukan, Dominik Rozkrut** va **Odil Kurbanov** tomonidan ro'yxatga olishni tayyorlash va o'tkazish jarayonlarida ko'rsatgan maslahat ko'magi hamda bergan

